

SAYXUNOBOD SHEVALARINING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI
МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ САЙХУНАБАДСКИХ СЛОВАРЕЙ
MORPHOLOGICAL FEATURES OF SAYKHUNABAD DICTIONARIES

Oyatullo Nasrullayev

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

oyatullaxondamirovich@gmail.com

Kalit soʻzlar: Sayxunobod tumani, Sayxunobod shevalari, morfologik xususiyatlar, hudud, mahalliy aholi, matn, shevaga oid soʻzlar, tahlil, adabiy til.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sayxunobod tumani shevalarining morfologik xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bayoni keltirilgan. Sayxunobod tumani hududida yashovchi mahalliy aholidan yozib olingan matnlar asosida shevaga oid soʻzlarning fonetik-morfologik xususiyatlari ilmiy-nazariy va nazariy tahlil jarayoniga tatbiq etilgan. Shuningdek, dialektal soʻzlar va adabiy tildagi soʻzlarga qiyosiy munosabat bildirilgan.

Ключевые слова: Сайхунабадский район, Сайхунабадские диалекты, морфологические особенности, территория, местное население, текст, диалектные слова, анализ, литературный язык.

Аннотация: В статье дается описание морфологических особенностей диалектов Сайхунабадского района. Фонетические и морфологические особенности диалектных слов были применены в процессе научно-теоретического и теоретического анализа на основе текстов, написанных местным населением, проживающим на территории Сайхунабадского района. Также проводится сравнение диалектных слов и слов литературного языка.

Key words: Saykhunabad region, Saykhunabad dialects, morphological features, territory, local population, text, dialect words, analysis, literary language.

Annotation: The article describes the morphological features of the dialects of Saykhunabad region. Phonetic and morphological features of dialect words were applied in the process of scientific-theoretical and theoretical analysis based on texts written by the local population living in the Saykhunabad region. It also compares dialect words and words of the literary language.

Oʻzbek xalq shevalarining morfologiyasi boʻyicha XX asrda juda koʻp ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Oʻrganilayotgan ikki shevaning morfologiyasi haqida toʻxtalganda ulardagi koʻplik va egalik, kelishik qoʻshimchalarining qoʻllanishi va maʼnolariga xos xususiyatlar, shuningdek, ularga oid tuslanish tizimi toʻgʻrisida fikr yuritilsa, yana ham oʻrinli boʻladi. Quyida ularga sheva vakillaridan yozib olingan dialektal matnlardagi tanlangan misollar asosida toʻxtalib oʻtildi. Albatta, bunga

“Ўзбек халқ шевалари морфологияси” nomli monografiyadagi ilmiy fikrlar dasturil amal bo‘ldi.

Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasi boshqa shevalardan fonetik, leksik, morfologik, grammatik jihatdan farqlanadi. Bu qishloqlar shevasida fonetik hodisalarning anchagina faolligini kuzatish mumkin. Biz bu maqolada ushbu qishloqlarning grammatik xususiyatlari to‘g‘risida, ya‘ni kelishik, egalik kategoriyalarining adabiy tildan farq qilgan holda qo‘llanish jarayonlari haqida o‘z fikr-mulohazalarimizni namoyon qilamiz. Shuningdek, bu qo‘shimchalarning asosga qo‘shilganda ularda sodir bo‘ladigan fonetik o‘zgarishlar to‘g‘risida ham o‘z fikrlarimizni bayon qilib o‘tamiz. Bundan tashqari grammatik son kategoriyasi haqida ham ayrim ma‘lumotlar berib o‘tamiz.

So‘zlarning egalik va kelishik kategoriyalari bilan o‘zgarishi **turlanish** deyiladi. Biz quyida egalik va kelishik kategoriyalarining ushbu shevada qanday ishlatilishini misollar va tahlillar bilan ko‘rib chiqamiz.

O‘zbek tilida kelishiklar XX asrning 50-yillaridayoq A. G‘. G‘ulomovning “O‘zbek tilida kelishiklar” asarida to‘liq yoritilgan. 1970-yilda M. Shoinoyatova esa shevamizdagi kelishiklar tizimini maxsus o‘rganib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Ma‘lumki, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi oltita kelishik mavjud. Bular:

1. Bosh kelishik. Ko‘rsatkichi yo‘q.
2. Qaratqich kelishigi. -ning
3. Tushum kelishigi. -ni
4. Jo‘nalish kelishigi. -ga
5. O‘rin-payt kelishigi. -da
6. Chiqish kelishigi. -dan

Bu qo‘shimchalar ba‘zi shevalarda 6 ta, yana boshqalarida 5 ta va hattoki 4 ta shaklda ham uchraydi. Singarmonizmli shevalarda esa 7 ta shakli ham uchraydi. Besh yoki to‘rt kelishikka ega bo‘lgan shevalarda ikki kelishik funksiyasini birgina affiks bajaradi.

Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasida kelishiklar soni beshtani tashkil etadi. Adabiy tilda qo‘llaniluvchi qaratqich kelishigi qo‘shimchasi jonli nutqda deyarli qo‘llanilmaydi. Kelishik qo‘shimchalari ushbu qishloqlar shevasida turlicha shaklda qo‘llanadi. Xususan,

Tushum kelishigining -ni, -ni, -i, -di, -ti -n affikslari ishlatiladi.

-ni affiksi. Hävlidägi qurip qägän älmäni čäpdik.

-ni affiksi. Mijimiñdägi ijnä tujmäni qädäb ā(l).

-i affiksi. Bizi qışlavimiz xalqi žudä mehnätkäš. Bu gapda qaratqich kelishigi vazifasini tushum kelishigi bajargan. Shuningdek, n tovushining assimillatsiyaga uchrash hodisasini kuzatishimiz mumkin: bizni - bizi

-di affiksi. Āvizdi nāmākāp suv bilān čäjsä, tüzälip ketädi.

-ti affiksi. Jigi:tti guli, hāj, bijäqqä qärävāriņ.

-n affiksi. Kitābin oqip čiqdiņmi? Bu qo‘chimcha badiiy-poetik uslubdagi -n qo‘shimchasi bilan o‘xshash bo‘lsa-da, ushbu shevada so‘zlashuv uslubida ham qo‘llanishi bilan farq qiladi. Bu qo‘shimcha boshqa tushum kelishigi shakllariga qaraganda juda kam ishlatiladi.

Ushbu qishloq shevalarida jo‘nalish kelishigining deyarli barcha shakllari (-gä, -kä, -qä, -yä) faol qo‘llaniladi.

-gä affiksi. Mäl bāzārgä qoçqār āgāni ketkän ekän.

-kä affiksi. Ertägä men avvāl iškä, kejin oqiškä bārāmān.

-qa affiksi. Guppi āmäkiņ qišlāqqä keliptimi?

-ya affiksi. Bugun bāγγä ālmä tergāni bārdik. Bu qo‘shimcha o‘rnida ba’zida tāqqä, bāqqä tarzida ishlatiladi.

Bu shevada o‘rin-payt kelishigining -dä, -tä affikslari ishlatiladi.

-dä affiksi. Ej bälä, bosāyādä turmäsāņ-či?

-tä affiksi. Ekāvi āvlāqtä mäslä:t qi:gän.

Chiqish kelishigining deyarli barcha shevalarda tarqalgan -dän, -tän affikslari ushbu shevada ham faol qo‘llaniladi.

-dän affiksi. Yoqālgän qozin gādājtāppäs žājdän čiqdi. Bu kelishik qo‘shimchasi, asosan, unli bilan tugagan asosdan so‘ng yoki jarangli undoshdan keyin qo‘shiladi.

-tän affiksi. Hār bir žojāktän žildirāp suv āqārdi. Bu qo‘shimcha esa jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlardan so‘ng qo‘shiladi.

Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasidagi egalik kategoriyasi adabiy tildan uning ko‘pvariantlilik bilan farqlanadi. Shevalarga oid egalik qo‘shimchalarini dastlab K. Nazarov 1960-1964-yillarda prof. A. G‘ulomov rahbarligida maxsus o‘rganilgan. Bu qo‘shimcha predmetning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini ekanligini bildiradi va birlik va ko‘plik shakllariga egadir.

Adabiy tilda bu kategoriya quyidagicha:

Birlik	Ko‘plik
I shaxs -m, im;	I shaxs -miz, imiz;
II shaxs -ng, ing;	II shaxs -ngiz, -ingiz;
III shaxs -i, si.	III shaxs -(lar)i

Egalik kategoriyasi shevalarda adabiy tildan tovushlar xilma-xilligi va variantlarining ko‘pligi bilan farqlanadi. Quyida biz ushbu shevada qo‘llaniladigan egalik affikslarini birma-bir misollar bilan ko‘rib chiqamiz.

I shaxs birlik affiksi: -m. Bälām, boldi-dä endi.

I shaxs birlik affiksi: -im. Čāpānim jāmyirdä qālīp suvgä bokip qāpti.

I shaxs ko‘plik affiksi: -miz/s. Ārāmiz(s)dā eṇ yālčāsi Momin šālpānqulāq edi.

I shaxs ko‘plik affiksi: -imiz/s. Ujimiz(s)gā mehmān bolip kelārsiz, āšnā.

II shaxs birlik affiksi: -ṇ. Ārāvāṇni berip tur, suv tāšip ālāj.

II shaxs birlik affiksi: -ṇ. Jāzgān xātiṇni tušunip bolmājdi-je.

II shaxs ko‘plik affiksi: -ṇiz/s. Mānāviṇiz(s)ni qārāṇ, āpā, ākām urjāpti.

II shaxs ko‘plik affiksi: -ṇiz/s. Tojiṇiz(s)gā ājtiš esizdān čiqmāsin, tāyā.

Ikkinchi ajratib ko‘rsatilgan so‘zdan ko‘rinib turibdiki, egalik qo‘shimchasi tarkibidagi ng tovushi tovushi tushib qolgan. Demak, undosh bilan tugagan asosga (esingizdan – esizdān) va unli bilan tugagan asoslarga (tugmangiz – tujmājiz(s)) qo‘shiluvchi -iz, -jiz affikslari bu shevada ham ishlatilar ekan.

III shaxs egalik affikslari Turkovul va Beshbuloq qishloq shevalarida -i, -si; ko‘plikda esa -lārī ishlatiladi.

-i affiksi. Ešmātni uli kāp-kāttā jigīt bop qāptimi?

-si affiksi. Māmārājimni bālāsi rāsā bezārī bopti-dā.

-lārī affiksi. Bu qo‘shimcha ko‘plik affiksi bo‘lmish -lār shaklini olgani uchun III shaxs ko‘plikda qo‘llaniladi. Ujdāgilārī bilmāsīn dep, bunī hammadān sir tutgān ekān.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatib turibdiki, ushbu shevada turlanish, ya’ni egalik va kelishik qo‘shimchalarining qo‘llanilishi xilma- xildir. Xullas, adabiy tildan ma’lum darajada farq qiladigan Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Biz o‘rganayotgan Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevalarining morfologik xususiyatlari haqida to‘xtalganda ko‘plik qo‘shimchasi ham e’tiborga olinadi. Sof ko‘plik ma’nosini ifodalashda shevalarda -lā//-la; -lar//-lār; (-nar//-nār//-nā; -ār//-ar//-ā; -dār//-dar; -tar//-tār) kabi ko‘plik qo‘shimchalari qo‘llanadi: gullā, ākāmgiā – akalarim, gaplar.

O‘zbek shevalari uchun -lār arxiv variant hisoblanadi va u barcha o‘zbek shevalarida qo‘llanadi. -lā affiksi Toshkent shevasida faol qo‘llanadi: ujlā (uyalar), qojijlā (qo‘yinglar) gullā (gullar) gunlā//gullā (kunlar). -nā affiksi Namangan shevasida qayd qilinadi: ujin (uyinglar), qojijnā (qo‘yinglar).

-la varianti esa Xorazm shevalarining dialektal matnlarida uchraydi: qizla (qizlar), ula (ular). -ā//ār affiksi shahar va shahar tipidagi shevalarida qo‘llanadi: bizā (bizlar)// bizār (bizlar). Qipchoq shevalarida: žuzumnār, mehmānnar, žigittār, ojynnār, -lār affiksi va uning variantlari Toshkent va viloyati shevalarida hurmat ma’nosini ham ifodalaydi.

Ayrim shevalarda ko‘plikning jamlik turini ifodalovchi maxsus affikslar ham bor, masalan, Toshkent dialekti shevalarida -lug, affiksi oz, oj kabi so‘zlarga

qo‘shilib, ko‘plik. jamlik ma’nolarini anglatgan: ozlugi, (o‘zlari), ojlugi(uylari), borligi; -gi affiksi shaxsga oid so‘zlarga qo‘shilib jamlik ma’nosini anglatadi: so‘zligi (so‘zlari), äkamgilä keldilä. Bu o‘rinda akasi va boshqa kishilar birgalikda tushuniladi.

O‘zbek adabiy tilidagi xalq shevalarida ham shaxs-son, zamon, va mayl shakllari tuslovchi qo‘shimchalar sanaladi.

Shaxs-son qo‘shimchalari. Kesimlik qo‘shimchalari adabiy tildagiga o‘xshash, ammo fonetik o‘zgarishlarga uchrashi ko‘p kuzatiladi. –di~dī va –sa~sä qo‘shimchalaridan keyin -m, -k, -ñ, -iz~iz, -lär~lar qo‘shimchalari qo‘shiladi: I shaxs -m bardim, -k bardik II shaxs -ñ kordīñ -iz~iz, -jilär~jlar kettiz, bardijlar, keldiz, keldijlär III shaxsda zamon qo‘shimchasi ham zamon, ham shaxs-son ma’nosini ifodalaydi. Adabiy tilda III shaxsda ko‘plik ma’nosi -di zamon qo‘shimchasidan keyin -lär ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shish orqali yasaladi. Ammo Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasida esa III shaxs egalik qo‘shimchasi boshqacha yasaladi. Fe’l asosiga –iš~iš va undan keyin -ti~tī, qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi: kordī-korištī, ketdi~ketištī. -(ä)r, jöp, -gän, -(i)b, -(i)p, -j zamon qo‘shimchalaridan keyin –män~man, -sän~san, -miz~miz, -siz~siz shaxs-son qo‘shimchalari qo‘shiladi: -ib ravishdosh shaklidan keyin –män~man, -miz~miz, -siz~siz qo‘shimchalari qo‘shilganda -pän, -pis tarzida talaffuz qilinadi. Chunki so‘z oxirida kelgan b undoshi talaffuzda p tarzida talaffuz qilinadi va o‘zidan keyin kelgan undoshni ham o‘ziga o‘xshatib oladi: jurippan, jurippis.

III shaxsda ko‘plik son fe’l asosiga š qo‘shimchasi undan so‘ng -ip zamon qo‘shimchasi va –di~dī shaxs-son qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi: jurišipti, kelišipti. -gän o‘tgan zamon qo‘shimchasidan keyin -män, -miz qo‘shimchalari qo‘shilganda o‘tgan zamon qo‘shimchasi tarkibidagi n undoshi m tarzida talaffuz qilinadi: bariškämmän, bariškämmiz.

Mayl shakllari. Xabar mayli adabiy tildagi bilan bir xil tarzda fe’l asosiga zamon va shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yasaladi: taptim, tuširdim, učirdiñ.

Buyruq-istak mayli adabiy tildagidan deyarli farq qilmaydi, lekin qo‘shimchalar talaffuzda fonetik o‘zgarishga uchraydi: -äj, jli, -älij, -gin, -sin, -išsin.

I shaxs menäm baräj bizäm barälij II shaxs senäm bar siläräm barijlar III shaxs ujäm barsin uläräm barsin (barišsin) Shart mayli adabiy tildagi bilan bir xil –sa~sä qo‘shimchasi bilan yasaladi: senäm kesän billä barämiz.

Maqsad mayli -maxči qo‘shimchasi bilan yasaladi: Menäm äräpčäni orgänmāxčimän.

Zamon shakllarida ham adabiy til bilan farq deyarli kuzatilmaydi. O‘tgan zamon -gan qo‘shimchasining ba’zi holatlarda -kan, -qan shaklida talaffuz qilinishi uchraydi: otkän, -ketkän. -kan qo‘shimchasi asosan jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi. -ib shakli ko‘pincha -ip shaklida qo‘shiladi: korippan, turippan.

Hozirgi va kelasi zamon qo‘shimchalari bilan o‘xshashlik adabiy til bilan bir xil. Faqat kelasi zamon -moqchi qoshimchasi -māxchi shaklida qo‘shiladi.

So‘z turkumlari haqida

Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasida olmoshlar ayrim o‘zgarishlarni inobatga olmaganda adabiy tildagi bilan deyarli bir xildir. Kishilik olmoshlarida adabiy tildagi men va sen o‘rnida män va sän ishlatiladi. Kishilik olmoshlariga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilganda n va g tovushlari ng//η lashadi: mänä, sänä, uñä kabi.

U olmoshi egalik qo‘shimchasini ikki marta oladi: unīsī, bunīsī, shunīsī kabi. Ko‘rsatish olmoshlari talaffuziga ko‘ra eng ahamiyatli olmosh hisoblanadi. Ular quyidagicha:

Adabiy tilda	Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasida
U	U
Bu	Bu
Ma Shu	Mäši/mäšu
Ana bu	Änävi
Mana bu	Manavi
Ana shu	Äšu/äši
Ana shunaqa	Äšnäqä/äštäqä
Mana shunaqa	Mäšnäqä/mäšdäkä
Ana shu yerda	Äsettä
Mana shu yerda	Mäsettä
Ana shu yoqqa	Äšäqqä
Mana shu yoqqa	Mäšäqqä
O‘sha	Äši
O‘shada	Äšidä (tasdiq ma’nosida ishlatiladi)
U yoqda	Ujāydä
Mana bu yoqqa	Mä:qä
Anavi yoqqa	Ä:qä (äqqä)
Uni	U:ni
Mana buni	Ma:ni
Mana bu yoqdan	Mäbāqdän, mä:ydän

So‘roq olmoshlari adabiy tildagi bilan deyarli o‘xshash, ayrimlari talaffuziga ko‘ra farq qiladi. Ular quyidagicha:

Adabiy tilda	Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasida
Qayerda	Qä:dä
Qayoqqa	Qä:qä
Qayerdan	Qä:dän
Qachon	Qäčän
Kimning	Kimiñ
Nimaning	Nimäniñ
Qayerning	Qäjettiñ

Biz, siz, kim olmoshlariga -niki qo‘shimchasi qo‘shilganda qo‘shimchadagi n undoshi talaffuzda tushib qoladi va bizziki, sizziki, kimmiki kabi. Bunda z va m tovushlarining ortganini ko‘rishimiz mumkin.

Belgilash olmoshlaridan hamma olmoshi faol qo‘llaniladi. Boshqalari juda kam qo‘llaniladi. Bir so‘zi narsa so‘ziga qo‘shilib gumon olmoshini hosil qiladi.

Ushbu shevada binnäsä tarzida talaffuz qilinadi. Hech ham, hech qachon bo‘lishsizlik olmoshlari hičäm deb talaffuz qilinadi. Gumon olmoshlaridan allakim, allaqaysi, allanima, allanarsa kabi alla- bilan yasaluvchi olmoshlar deyarli ishlatilmaydi. Ulardan faqat allaqachon olmoshi ishlatiladi va u älläqäčän tarzida talaffuz qilinadi. ällänimä olmoshi o‘rnida binnäsä, älläkim o‘rnida biräv so‘zlari ishlatiladi: Märäjim äkä mänä binnäsälär degändäy boluvdi.

Bo‘lishsizlik olmoshi tarkibidagi heč qismi hič, hiš tarzida talaffuz qilinadi: Tāyām u häqdä hišnimä demädi. Hech qachon olmoshi o‘rnida hičäm olmoshi qo‘llanadi: Hičäm buni ojlämägän ekänmän.

Boshqa so‘z turkumlarida adabiy til va sheva o‘rtasida deyarli farq bo‘lmagani sababli to‘xtalib o‘tishni lozim topmadik.

Yordamchi so‘z turkumlari o‘rtasida juda katta farq yo‘q, shu sababli ayrim ma’lumotlarnigina berib o‘tamiz.

Adabiy tildagi ham bog‘lovchisi shevada jām tarzida qo‘llanadi. Ammo bu bog‘lovchining qo‘shimcha shaklidan ko‘ra uning yuklama vazifasi shevada faolroqdir: Mänijäm tojiña ajtäsänmi?

Shevada va bog‘lovchisi qo‘llanmaydi. Va bog‘lovchisi bajargan vazifani bilan ko‘makchisi bajaradi: Ertän bizzikigä Tālīp bilän sän häšärgä keñlär.

Ammo va lekin bog‘lovchilari alohida bog‘lovchilar bo‘lishsa-da, biroq ularni birgalikda kelgan holatini shevada uchratishimiz mumkin: ämälekin.

Yuklamalardan so‘zlashuvda so‘roq va kuchaytiruv-ta’kid yuklamalaridan ko‘proq foydalaniladi: -či, -mi, -ä faol qo‘llaniladi. Kuchaytiruv va ta’kid yuklamasi -ku shevada qo‘llanmaydi, bu yuklama o‘rnida -u ishlatiladi: Oziñu čaqīrsäm kemägän.

Ko‘makchilarda adabiy tildagidan farq bo‘lmagani uchun to‘xtalib o‘tishni lozim topmadik.

Oraliq so‘zlar bo‘lkmish undov, taqlid, modal so‘zlarda ham deyarli farq bo‘lmagani uchun bu haqda yozib o‘tishni lozim ko‘rmadik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent, “Nodirabegim”, 2021. –B. 43-46.
2. Enazarov T. Dialektologiya metodologiyasi (monografiya). –Toshkent, “Innovatsiya-Ziyo”, 2020. 38 b.
3. Enazarov T. O‘zbek dialektologiyasi: nazariya va amaliyot – Toshkent, “Mahalla va oila”, 2021. 92-100-betlar.
4. O‘zbek shevalari morfologiyasi. – Toshkent: Fan. 1984.
5. Абдурахмонов Д. Ўзбек шевалари морфологиясининг ўрганилиши // Ўзбек шевалари морфологияси. -Тошкент: Фан, 1984. 248-271-betlar.